

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Yoqubov, D.Sh.Sultonov, M.U.Maxmudov, A.Z.Rasuljonov, I.I.Zokirov</b>	
Kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> ) lichinkalari morfometrik o'lchamlarining ozuqa o'simligiga bog'liqligi .....	124
<b>A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov,</b>	
<b>B.J.Mavlanov, B.Y.Hamraliyev</b>	
Farg'ona viloyatida <i>Capparis spinosa</i> L. ning tabiiy resurslari .....	130
<b>A.B. Karimov, Sh.X. Xomidchonova</b>	
Morfologicheskie izmeneniya tkani prymoi kishki posle khimicheskikh vozdeystviy.....	139
<b>A.I.Iskandarov, G.S.Mirzayeva, M.O.Xudoyberdiyeva, D.M.Musaev, Sh.N.Nazarov,</b>	
<b>B.R.Xolmatov, M.N.Valiyeva</b>	
Haqiqiy qalqonli qandalalar (Pentatomidae) ayrim turlarining molekulyar genetik identifikatsiyasi.....	142
<b>A.A.Yoqubov, I.I.Zokirov</b>	
Tuproq tarkibining kuzgi tunlam ( <i>Agrotis segetum</i> ) g'umbagi hayotchanligi va kapalak chiqish darajasiga ta'siri .....	150
<b>M.T.Botirov, E.A.Ergashev</b>	
Kristallanish jarayoni va yoriqlar paydo bo'lishida albumin eritmalari konsentratsiyasining ta'siri .....	155
<b>F.Xolboev, B.Shodihev, F.Shodiyeva</b>	
O'zbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari va tarqalishi.....	160

---

QISHLOQ XO'JALIGI

<b>M.A.Avliyakulov, N.N.Yaxyoyeva</b>	
S-8286 g'o'za navini egatlab va tomchilatib sug'orish me'yorlari .....	165

---

GEOGRAFIYA

<b>L.Z.Ibragimov, G.B.Barotova</b>	
Urbanizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishning ba'zi masalalari .....	170
<b>Sh.X.Boboyev</b>	
Samarqand viloyati agrosanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorligini baholash .....	179
<b>T.N.Yarboboyev, K.Y.Qosimova</b>	
Kaliy ma'danlarini qazib olish va qayta ishlash obyektlarida atrof-muhitni muhofaza qilish mezonlari .....	189

---

ILMIY AXBOROT

<b>Z.Z.Aliyev, Y.M.Melixodjayev</b>	
Bolalarda tug'ma ixtizoz kasalligi va uning kelib chiqish sabablari.....	194
<b>A.E.Normatov, L.T.Yuldashev</b>	
Neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni Eyxorniya yuksak suv o'simligi yordamida tozalash biotexnologiyasi (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi misolida) .....	197

**УО'К: 911.375****URBANIZATSIYANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINI O'RGANISHNING BA'ZI MASALALARI****НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ УРБАНИЗАЦИИ****SOME ISSUES OF STUDYING THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF URBANIZATION****Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich<sup>1</sup>** <sup>1</sup>Sharof Rashidov nomidagi, Samarqand davlat universiteti professori**Barotova Gulmira Bahri qizi<sup>2</sup>** <sup>2</sup>Sharof Rashidov nomidagi, Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishini ilmiy nazariy masalalarini o'rganishga qaratilgan. Urbanizatsiya jarayonilarini rivojlanish bosqichlari, urbanizatsiya bilan bog'liq muammolarga qaratilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari hamda urbanizatsiyaning ijtimoiy geografik jihatlari o'z aksini topgan. Shuningdek, urbanizatsiyaning jadal suratlarda rivojlanganligi va tartibga solinmaganligi oqibatida milliy urf odatlar, qadriyatlar, ekologik muhitning yomonlashuvi kabi ko'plab ijtimoiy muammolarning mavjudligiga oid tahlillar va shaharlarning rivojlanishini tug'ri tashkil etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация**

Целью данной статьи является исследование научно-теоретических вопросов становления и развития процессов урбанизации. Отражены этапы развития процессов урбанизации, научные исследования учёных, посвященные проблемам, связанным с урбанизацией, социально-географические аспекты урбанизации. Так же анализ существования многих социальных проблем, таких как ухудшение национальных обычаяев, ценностей и экологической среды, в результате быстрого развития и отсутствия регулирования урбанизации, а также предложения и рекомендации, направленные на правильную организацию дано развитие городов.

**Abstract**

This article is aimed at studying the scientific theoretical issues of the formation and development of urbanization processes. The stages of development of urbanization processes, scientific research works of scientists focused on problems related to urbanization, and the socio-geographical aspects of urbanization are reflected. Also, due to the rapid development and unregulated urbanization, many social problems such as the deterioration of national traditions, values, and the ecological environment are analyzed, and proposals and recommendations are given to properly organize the development of cities.

**Kalit so'zlar:** urbanizatsiya, shahar, shaharcha, aholi joylashuvi, migratsiya, shahar aglomeratsiyalari.

**Ключевые слова:** урбанизация, город, поселок, размещение населения, миграция, городские агломерации.

**Key words:** urbanization, city, town, population settlement, migration, urban agglomerations.

**KIRISH**

Urbanizatsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish masalasi hozirgi davrning muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri hisoblanadi. U barcha mamlakatlarda "qishloq-shahar" yo'naliishida aholi migratsiyaning kuchayishi, qishloq xo'jaligi bo'limgan sohalarning ustuvor rivojlanishida namoyon bo'lib bormoqda. Urbanizatsiya aholining o'sishi, xalqaro migratsiyaning faollashuvi bilan birga nafaqat dunyo aholisining soni va tarkibining o'zgarishini balki kishilik jamyati va umuman jamiyat o'zgarishini belgilovchi muhim demokratik jarayonlar jumlasiga kiradi.

## GEOGRAFIYA

---

Yer yuzida urbanizatsiya jadal suratlarda davom etar ekan, shahar manzilgohlarida, ayniqsa yirik va juda katta mega shaharlarda yashovchi aholining ulishi tez ortib bormoqda. Iqtisodiy faoliyat va boshqaruvning katta qismi jamlangan shaharlar alohida mamlakat ichida ham bir necha davlatlar o'tasida ham, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy munosabatlar markazlariga aylanib bormoqda. Bu ularning yanada jadal rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratishi bilan birga, shaharlarning iqtisodiy, demokrafik, iqlimiylar va boshqa sabablarga ko'ra tez o'sishi bilan bog'liq, boshqarib bo'lmaydigan jiddiy ijtimoiy xatarlarni, ularning tanazzulga uchrashini keltirib chiqarishi mumkin. Kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muamolar yirik shaharlarning barqaror rivojlanishini va ularning kichik shaharlar va qishloq aholi punktlariga integratsiyalashuvi bilan tobora bog'liq bo'ladi [2].

**Tadqiqotlar sharhi.** Urbanizatsiya ya'ni mamlakat va mintaqalarda ularning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida shaharlashuv jarayonining kuchayib borishi turli yiriklikdagi yirik shahar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi qishloq joylar aholisi turmush tarzi o'zgarishida o'z aksini topuvchi hodisadir [3].

Ma'lumki, urbanizatsiya jarayonlari shaharlashuv va aholining shaharlarga joylashuvini anglatadi. Bu jarayonning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishda bir necha ilmiy nazariy masalalar mavjud. Urbanizatsiya nafaqat shaharlar rivojlanishiga balki ularning ta'sirini o'z atrofiga diffuzion tarzida tarqalib borishiga ham ta'sir qiladi. Urbanizatsiyaning bunday xususuyati yoki mohiyati moddiy negizini tashkil etuvchi shaharlarning ochiq tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq[4]. Shaharlar rivojlanishi va ular bilan bog'liq urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida eng ko'p tadqiq qilingan yo'naliishlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan mahalliy va xorijiy olimlar va ularning tadqiqotlari bu sohadagi ilmiy tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi.

Urbanizatsiya jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy masalalari bilan bog'liq tadqiqotlar ko'proq g'arb olimlari tomonidan jiddiy tadqiqotlar olib borganini ko'rshimiz mumkin. Ayniqsa bu borada AQSHlik olimlarning ishlari hozirgi zamon urbanizatsiya muammolarini chuqur tadqiq etib kelayotganliklari bilan ham alohida ahamiyatlidir. Shulardan bir Garvard universiteti professori Edward Glaeser bo'lib, u AQSHDagi "Xalqaro o'sish markazi" da shaharlarni o'rganish dasturini boshqarib kelmoqda. Olim "Triumph of the City" nomli asarida shaharlarning iqtisodiy ahamiyati, urbanizatsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan ta'sirlarga jiddiy e'tibor qaratgan. U shaharlarning innovativ imkoniyatlarini yaratish va ijtimoiy vaziyatning ahamiyatini tahlil qilgan. Yana bir AQSHlik shaharshunos olim Richard Florida o'z tadqiqotlarida shaharlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish nazariyasiga e'tibor qaratgan. Olim o'zining "The Rise of the Creative Class" asarida urbanizatsiyaning ijtimoiy tarkibi va iqtisodiy rivojlanishda yaratuvchi faoliyatning ahamiyatini ko'rsatib bergen.

Michael Porter tadqiqotlarida esa klasterlarning urbanizatsiyani iqtisodiy rivojlanishga ta'siriga e'tibor qaratgan bo'lib, u o'zining "klaster" konsepsiyasida shaharlar va mintaqalarning iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlashdagi strategik yo'naliislarni belgilab bergan. Jane Jacobs esa "The Death and Life of Great American Cities" asarida shaharlarning ijtimoiy hayoti va urbanizatsiyaning barqarorligini tadqiq qilgan. Olim asosan shaharlarning funksiyalari va urbanizatsiyaning ijtimoiy samaradorligi haqidagi konsepsiyalari bilan tanilgan. Robert Moser o'z tadqiqotlarida asosiy e'tiborni mintaqalarda urbanizatsiya va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratgan bo'lib, urbanizatsiyaning ekologik ta'sirlarini va barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqqanligi ahamiyatlidir. 1933-yilda nemis olimi V.Kristallerning "Janubiy Germaniyada markaziy o'rinnari" kitobining nashir etilishi (keyinchalik "Markaziy o'rinnlar nazariyasи" bilan mashhur bo'lgan "Shaharlar geografiyasi" fanining vujudga kelishida muhim asos bo'ldi. Olim bir xil sharoitlarda, iqlim, aholi, zichligi transport va boshqa jihatdan bir xil joylashishini aniqlagan. K.Klark o'z ishlarida aholi va zichlikning shaharlardan atrofiga qarab pasayib borishini va shunga ko'ra, yerga bo'lgan narxlarning ham arzonlashib borishi qonuniyatlarini tadqiq etadi [4].

Shaharlar klassifikatsiyasi va tipologiyasi bilan tadqiqotlar MDH mamlakatlarining yirik urbanist olimlari V.G.Davidovich, O.A.Konstantinov, I.M.Mayergoyiz, G.M.Lappo, B.S.Xorev, Ye.N.Persik, Yu.L.Pivovarov, V.Sh.Djoashvili kabilar ham yaqindan shug'ullanishgan. Urbanizatsiya masalalari bo'yicha xorijiy olimlarning tadqiqotlari shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy va

ekologik jihatlarini tushunishga yordam beradi. Bu tadqiqotlar barqaror shahar rivojlanishini ta'minlash va urbanizatsiyaning ijtimoiy ta'sirlarini muhokama qilish uchun asos bo'ladi.

Urbanizatsiya masalalariga oid tadqiqot olib borgan rus olimlari va ularning ishlari shaharlashuv jarayonini, ijtimoiy va iqtisodiy tahlillarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, shahar manzilgohlarini aholi soni bo'yicha guruhlashtirishda F.M.Listengurt 4 ta sinfga ajratgan bo'lsa, yirik urbanist olimlar, G.M.Lappo, Yu.L.Pivovarovlar esa bir-biridan farqli ravishda 6 ta sinfga ajratishadi [3]. Shaharlar geografiyasi bo'yicha yetuk olimlardan biri N.Baraniskiy shaharlarni iqtisodiy geografik o'rganishning rejasini tuzib chiqqanligi bilan ahamiyatlidir. 1850-70-yillarda K.I.Arsenov gidrografik tarmoqlarning Rossiya shaharlari taroqqiyotdagi rolini o'rganib, 200 yillik tarixni tadqiq etgan. 1910-yilda Rossiyada V.P.Semenov Tyanshaniskiy Rossiyaning Yevropa qismidagi shahar va qishloq (Gorod i derevnya Yevropeyskoy Rossiya) asarini chop etgan bo'lib, uning fikricha, shaharlar umumsayyoraviy markazlar bo'lib, ulardan tarqalgan radiuslar bo'yab muayyan masofada unga yordamchi kichikroq shaharlar joylashadi va uning atrofidagi hududlar iqtisodiy jihatdan o'sha markazga qaram bo'ladi.

Aleksandr Aganbegyan ishlarida urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtaсидаги aloqalarni tahlil qilgan. Asosiy ishlari Aganbegyan shaharlarning iqtisodiy strukturasi, aholini joylashtirish va urbanizatsiya jarayonlarining samaradorligini tadqiq qilgan. Valentina Shumilova esa urbanizatsiya va shahar muhiti, ijtimoiy xizmatlar va infrastrukturani rivojlantirishga e'tibor bergan. Shumilova shaharlarda ijtimoiy adolat va resurslarning samarali taqsimotini ta'minlashga qaratilgan amaliy takliflarni ilgari surgan. Shevlevoy shaharlarning ekologik barqarorligi, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni ishlatish masalalariga e'tibor qaratgan. Safronovning tadqiqotlari shaharlarda ish o'rinnari, ijtimoiy xizmatlar va ta'lim imkoniyatlari haqidagi samarali strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Levining ishlarida shaharlarning tarixi va madaniyati, urbanizatsiyaning ijtimoiy samaradorligi haqida ijtimoiy fanlar nuqtabi nazardan baholangan. Yana bir rus olimi Rudenko shaharlarning rivojlanishidagi ijtimoiy mexanizmlar, jamoa munosabatlari va shaharlarda faol ijtimoiy siyosatlarni tahlil qilgan. Jumladan, aholi punktlarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan yirik olim V.G.Davidovich 1960-yillarda shahar manzilgohlarini o'rganishda mazkur aholi manzilgohlarining funiksional tiplarini aniqlashda markaziy o'rinni egallaydi. Aynan shaharlarning funksional tiplari, ulardagi aholi soni va rayon hosil qiluvchi rolini belgilab beradi deb ta'kidlaydi. Umuman olganda rus olimlari urbanizatsiya masalalarida muhim tadqiqotlar olib borib, shaharlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlarini yaxshilashga qaratilgan muammolarni ochib berishgan. Bu tadqiqotlar shaharlarni barqaror rivojlanirishdagi strategiyalarni takomillashtirishga yordam beradi.

O'zbekistonda esa ko'rileyotgan muammoning geografik jihatlarini E.A.Ahmedov, T.I.Raimov, O.B.Atay-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov, Z.N.Tojiyeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.N.Mallaboyev, Sh.B.Imomov, Z.T.Raimjonov, Z.T.Abdalova, S.Tashtayeva, A.M.Mavlonov, M.M.Egamberdiyeva, P.R.Qurbanov, A.S.Tursunov, B.M.Musayev kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ushbu ishlarda urbanizatsiya jarayonlari, shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishi va joylanish muammolari, ularning istiqbolda rivojlanish masalalaritsh o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini bo'yicha muhim tadqiqotlarning amalga oshirgan olimlardan biri O.B.Otamirzayevning asarlarida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining holati, uning taraqqiy etishi bilan bog'liq demografik va geografik asoslar tadqiq qilingan. Urbanizatsiya yo'nalishida ilmiy taqdijotlar olib bongan E.Axmedov va N.Fayziyevlarning "O'zbekiston aholisi" monografiyasi diqqatga sazavordir. Ushbu monografiyada shaharlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, tarkibiy qismi, shaharlarning hozirgi davrdagi xususiyatlari, shaharlar soni va ularning o'sishi omillari kichik shaharlar shahar va qishloq o'rtaсидаги munosabatlari, aholining joylashishi, qishloq aholi manzilgohlariga shahar maqomini berish qonun-qoidalari hamda shahar mahalliy hokimiyyat boshqaruvi tizimi haqida muhim nazariy va amaliy xulosalar berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishida** shaharlar klassifikatsiyasi, tipologiyasi, tizim-tarkib, taqqoslash, tarixiy, statistik tahlil kabi usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rtaсидаги aloqadorlik, demografik jarayonlar, va boshqa mihim ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'siri darajasi ko'rsatib berilgan.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarining iqtisodiy taraqqiyoti va aholining ijtimoiy turmush masalasida ilmiy taqdijotlar olib bongan I.Mullajonovning ilmy

## GEOGRAFIYA

taqdijotlari alohida ahamiyatga ega. Olim o'z taqdijotlari natijasida respublika shaharlariga ijtimoiy-iqtisodiy madaniy axvoli va aholi migratsiyasi bo'yicha uch muhim jihatini ko'rsatib o'tadi. Bular: birinchidan, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda ro'y bergen migratsiya natijasida mehnat resurslari hududiy miqyosda qayta taqsimlanadi. Ikkinchidan, shaxsiy manfatdorlik pirinsipi asosida aholi migratsiyaga ixtiyoriy ravishda moyillik paydo bo'ladi va bunda migratsiya rejali tarizda yoki reja asosida amalga oshirilsa, jamiyat manfaatlariga katta foyda keltirishi. Uchinchidan, migratsiya natijasida turli millat vakillari o'zaro yaqinlashadi, ko'plab aholi punkitlari paydo bo'lishi kabi qonuniyatlarni ko'rsatib o'tgan [6].

Urbanizatsiya jarayonlarining tarixiy taraqqiyotdagi o'rni, O'rta Osiyoda demografik jarayonlar, O'zbekistonda aholi sonining o'sish holati hamda migratsiya tushunchasi bilan bog'liq tarixiy manbalarni tahlil etishda M.Qoraxonovning asarları diqqatga sazavordir. Bundan tashqari L.Maksakovaning asarlarida O'zbekiston shaharlaridagi sanoat korxonalari, ishchilarini sinifning o'sishi, sanoat korxonalariga respublika tashqarisidan ishchi kuchi keltirilishining sabablari hamda mahalliy ishchi kuchlarini shakllantirish bilan bog'liq jarayonlar ko'rsatib o'tilgan [5]. O'zbekistonda shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, rivojlanishi va madaniy-manaviy taraqqiyotni o'zida aks etiruvchi bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan bo'lib, ularda shaharlarning paydo bo'lishi va taraqqiyot jarayonlari kabi masalalar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. N.U.Tulyaganovaning tadqiqotida O'zbekiston shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, shaharlarda sanoat korxonalarining tashkil topishi uning urbanizatsiya holati, shaharlarning iqtisodiy hamkorligi hamda Sobiq Ittifoqda mavjud bo'lgan 180 ta shaharning o'zaro iqtisodiy hamkorlik to'g'risida to'liq ilmiy tahlillar berilgan. Shuningdek, ushbu ishda O'zbekiston shaharlarning xorijiy mamlakatlardan ularning shaharlari bilan iqtisodiy aloqalari, buning shahar manaviy-madaniy hayotidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan [10].

Mustaqillikning dastlabki o'n yilligida urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq muhim ahamiyatga ega bo'lgan tarixi bilan bog'liq ko'plab asarlar yaratildi. Tarixshunoslar tamonidan o'rta asrlar davrida yozilgan tarixiy manbalar o'zbek tiliga tarjima qilindi, bu esa usha davrga oid shaharlarning nomlanishi ularning ijtimoiy-iqtisidiy va siyosiy taraqqiyoti va madaniy hayotidagi o'rnini o'ganishga imkoniyat yaratdi. O.Otamirzayev, V.Gentshiky, R.X.Murtazayevalarning monografiyalarida urbanizatsiyasi jarayonlariga alohida etibor berilib, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega shaharlar, ularning iqtisodiy o'sishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, madaniy yuksalishi, shaharlarga xos muomolar hamda ularning bartaraf etish omillari, shunindek, demografik jarayonlari, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari, respublikada 1959-1970-yillardagi aholi sonining yuqori suratlari bilan o'sishi kabi masalalar hamda uning urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri kabi muhim masalalar tahlil qilingan.

Shaharlarda ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, urbanizatsiya qonuniyatlarini chuqur o'rganish va bu sohadagi mummolarni yoritishda E.A.Ahmedovning tatqiqotlari muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish lozimdir. Tadqiqotda urbanizatsiya jarayonlaridagi sifatiy o'zgarishlar, sanoatdagi unumdarlik, ijtimoiy mehnat unumdarligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, urbanizatsiya bilan ekoliya orasidagi o'ziga xos bog'lanishlar, shahar bilan qishloq aholi putktlari o'rtasidagi aloqalar, demografik holatning urbanizatsiyaga ta'siri kabi muhim masalalar ilmiy jihatdan tadqiq qilingan [10]. So'nggi yillarda respublikada urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan yirik tadqiqotlardan S.S.Zokirov (2021) tomonidan amalga oshirilgan.

Shaharlar - hududlarning markazi bo'lib, bu joyda markazga intiluvchi va markazdan ochuvchi (tarqaluvchi) kuchlarning borligi, ularning o'zaro nisbati va muvozanati urbanizatsiyaning asosiy geografik jihatlarini belgilab beradi. Urbanizatsiyaning ijtimoiy (aniqrog'i sotsial) va iqtisodiy mohiyati bilan birga, uning yana bir boshqa qirralari ham mayjud. Shu o'rinda mazkur jarayonning tarixiy va geografik xususiyatlariga ega ekanligini makon va zamonda o'zgarib borishini alohida ta'kidlash zarur. Agar turli davrlarda jumladan, qadim zamonalarda daslabki shaharlarning paydo bo'lishi (masalan, Yaqin sharq, O'rta Osiyo, Xitoy va boshqa hududlarda) ilk urbanizatsiya hisoblansa uning keyingi vaqtarda o'zining ko'lami, mohiyati va mazmuni ta'sir doirasining o'zgarib borishi, ushbu jarayonning tarixiyligi, boshqacha qilib aytganda, finomen yoki voqelikdir.

Urbanizatsiyaning eng muhim, ikkinchi jihat, ya'ni uning geografik xususiyatlarini tahlil qilishdan avval, ushbu o'ta murakkab jarayonning boshqa tomonlarini ta'kidlash lozim. Ma'lumki,

urbanizatsiya soʻf holda sotsial hodisadir. Bunda turli yiriklikdagi shaharlar va ayniqsa, yirik markazlar oʻziga xos sotsial muhit yoki boshqacha qilib ayganda, nisbatan kichik hududda aholining nihoyatda zinch joylashuvi uning yashash sharoiti va tarzini aks ettiruvchi makondir. Shaharlarda aholining kundalik hayoti mashgʻuloti, ijtimoiy faoliyati va hatto yurish–turishi, urfodatlari, qishloq joylaridan ancha farq qiladi. Shu bois “shaharcha” yashash tarzining kuchayib borishi, uning asta-sekin, bosqichma-bosqich qishloq joylariga kirib borishi urbanizatsiyaning sotsial, sotsial geografik jihatlarini namoyon qiladi [6].

Urbanizatsiyaning murakkabligi uning denamik xususiyatga ega ekanligi, kishilik jamiyatida tub oʻzgarishlarga olib kelishi, maʼlum darajada sotsial hodisadir. Shu oʼrinda alohida takidlash lozimki, har qanday hodisa kabi, urbanizatsiyaning ham ijobjiy va salbiy jihatlari mavjud. Uning murakkab jarayon ekanligini eʼtirof etish ham aynan shunda oʼz aksini topadi. Masalan, urbanizatsiyaning jadal suratlarda rivojlanishi va tartibga solinmasligi oqibatida milliy urf odatlar, qadriyatlar zaiflashib boradi. Urbanizatsiyani rivojlanishini yana bir muhim tomoni bu iqtisodiy rivojlanish oʼrtasidagi aloqadorligidir. Urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish oʼrtasidagi aloqalar doimo olimlarning diqqat markazida boʼlib kelgan. Urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish oʼrtasidagi aloqa murakkab va koʼp qirralidir. Bu ikki jarayon bir-birini shakllantiradi va ragʼbatlantirib boradi. Bunda bir qancha yoʼnalishlar muhim rol oʼynaydi.

*Ish oʼrinlari yaratish:* urbanizatsiya jarayonida shaharlarda yangi ish oʼrinlari yaratiladi. Sanoatlashuv, xizmatlar sohasi va innovatsiyalar koʼpincha shaharlarda rivojlanadi, bu esa aholi migratsiyasini va shaharlashuvni ragʼbatlantiradi.

*Iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi:* shaharlardagi konsentratsiya iqtisodiy faollikni oshiradi. Kichik va oʼrtacha biznesning rivojlanishi, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga olib keladi.

*Texnologik innovatsiyalar:* urbanizatsiya shaharlarda texnologik innovatsiyalarni ragʼbatlantiradi. Yashil texnologiyalar, aqlli shahar konsepsiylari, transport tizimlari va infratuzilma rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

*Ijtimoiy muammolar va ixtiloflar:* urbanizatsiya ijtimoiy muammolar, shahar aholisi orasidagi iqtisodiy farqlarga olib kelishi mumkin. Bu, oʼz navbatida, ijtimoiy toʼqnashuvlarga va iqtisodiy inqirozlarga sabab boʼlishi mumkin.

*Iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan siyosat:* davlat siyosati doimo shaharlarni rivojlantirish va resurslarni taqsimlashda muhim rol oʼynaydi. Iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan siyosat urbanizatsiyani ham ragʼbatlantiradi, ham uning samaradorligini oshiradi.

*Ekologik omillar:* urbanizatsiya doimo tabiiy resurslarga boʼlgan bosimni oshiradi. Iqtisodiy rivojlanish ekologik barqarorlikni talab etadi, bu esa resurslarni samarali foydalanishni taʼminlashda muhim hisoblanadi.

*Aholining yashash sharoiti:* shaharlardagi iqtisodiy rivojlanish, aholi hayotidagi sharoitlarni yaxshilashga yordam beradi, bu esa ijtimoiy muammolarni kamaytirishga, sogʼliqni saqlash, taʼlim va boshqa xizmatlarga kirishni osonlashtiradi.

Umumiyligida aytganda urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish oʼrtasidagi aloqa murakkab boʼlib, ikki jarayonning oʼzaro taʼsirini hisobga olish, barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shaharlar ijtimoiyi, iqtisodiy va ekologik jihatlardan barqaror boʼlishi kerak, bu esa urbanizatsiyaning samarali va barqaror rivojlanishini taʼminlaydi.

Bir qancha tadqiqotlarda urbanizatsiyaning demografik jihatlariga ham eʼtibor qaratilganligini koʼramiz. Urbanizatsiya jarayoning eng muhim jihatlaridan yana biri uning demografik xususiyatidir. Ushbu jarayoning asosiy koʼrsatkichi yoki indikatori ham mamlakat va boshqa hududlarda jami aholining qancha qismi shahar joylarda toʼplanganligi yoki ulushi bilan bogʼiq. Aholining shaharlarga koʼchishi, aholi tarkibining oʼzgarishi va shaharlarning rivojlanishida muhim rol oʼynaydi. Aholi migratsiyasi, demografik oʼzgarishlar, ijtimoiy tarkib va taʼlim imkoniyatlari shaharlarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy adolatni taʼminlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Urbanizatsiyaning demografik xususiyatlari aholi tabiiy koʼpayishi, jumladan tugʼulishning qisqarishi, migratsiya harakatchanligining kuchayishida yaqqol namoyon boʼladi. Odadta, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda tugʼilish va tabiiy koʼpayish past, xatto ularning ayrimlarida depopulyatsiya xodisasi kuzatilmogda. Ularda migratsiya jarayonlari mehnat bozori va uning faoliyati ham oʼziga xos mazmun kasb etadi.

## GEOGRAFIYA

Hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi geokriminogin vaziyatni keskinlashtiradi, yani jinoyatchilikning turlari va ko'lami kengayib boradi. Shuningdek, sotsial muhitning shakillanish doirasida ekologik holatning yomonlashuvi va shu asosda turli xil kasalliklarning ko'payishi urbanizatsiyaning salbiy oqibatlaridan biridir. Aholi o'ta zich joylashgan hududlarda turli xil sanoat korxonalari va transport tizimining yuqori darajada mujassamlashuvi va xatto shahar ko'chalarini va binolarining qurilish, holati, uning mikroiqlim ko'rsatkichlariga ham ta'sir etadi. Bunday sotsial muhitda oila munosabatlari, qarindosh-urug'chilik, milliy – urf odatlar o'ziga xos mazmun kasb etadi va ayni vaqtida, urbanizatsiya jarayoni bilan bog'liq kasalliklar vujudga kelishi hamda tarqalishga imkoniyat yaratadi [5]. Albatta shaharlar rivojlanishisiz jamiyat, mamlakat va mintaqalar taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Chunki shaharlar, xususan hozirgi kunda mamlakat va xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir.

Shaharlarda turli xil xodisalarning yuqori darajada hududiy mujassamlashuvi ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham ularning ijtimoiy ishlab chiqarish investitsiya, inovatsiya salohiyati yuksak darajada bo'lishi talab etiladi. Ayni vaqtida davlatlarning o'zlarini milliy poytaxtlari va ularning nomlari orqali xalqaro aloqalariga rasmiy ishtirok etishi, jahon hamjamiyati, geosiyosiy tizimidagi ishtirokini aks ettiradi. Shu nuqtaiy nazardan shaharlarning xalqaro munosabatlarining shakillanishida ishtirok etishi urbanizatsiyaning siyosiy-geografik tomonlari biri hisoblanadi. Tabiiyki, bu borada mamlakatlarning poytaxti, ularning turli sohadagi salohiyati katta ahamiyatga ega. Shaharlar rivojlanishi shu asosda urbanizatsiya jarayoning avj olishini iqtisodiy jihatlari ham muhimdir. Sababi, shaharlarning ishlab chiqarish salohiyati, bu yerda barcha infratuzilma va shaxobchalarining mavjudligi innovatsiyaning rivojlanishi va qulay investitsiya muhitini shakillantiradi shu boisdan shaharlarda xorijiy mamlakatlar ishtirokida qushma korxonalarni barpo etish ko'proq ko'zga tashlanadi.

Shaharlarda turli xil sanoat korxonalari va ayniqsa malakali kadrlarga muhtoj ilm talab sanoat tarmoqlarining rivojlanishi hozirgi zamon urbanizatsiyasining iqtisodiy jihatlarini nomoyon qiladi. Shu ma'noda takidlash joizki yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti "postindustrial" yani sanoat bosqichidan o'tgan iqtisodiyot tizimini boshidan kechirmoqda. Bir vaqtlar sanoatlashuv urbanizatsiya jarayonining asosi hisoblangan to'qimachilik, qora metallurgiya hozirgi kunda bu mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega emas. Shu sababdan bo'lsa kerak, past malakali va ko'p mehnat talab qiluvchi yuqori darajada xomashyo sarflovlchi hamda ekologik xafli sanoat tarmoqlari rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chmoqda. Bu xususda mazkur sanoat tarmoqlarining G'arbiy Yevropadan janubga, shimoliy Afrikaga siljishi Tinch okean havzasidan esa Yaponiya va Janubiy Koreyadan sharqiy Xitoy va janubi-shargiy Osiyoga ko'chishi jahon geoiqtisodiy tizimida shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimotidagi o'zgarishlar, jahon iqtisodiyoti va urbanizatsiyaning hududiy tarkibidagi jarayolarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Bu esa global, olamshumul ahamiyatga molik urbanizatsiya jarayonlarining shaharlar rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlarini yaqqol namoyon qiladi.

**Muhokama qismi.** Umuman olganda shaxarlar iqtisodiy salohiyatining yuksakligi boshqa sohalarda rivojlanishining zamini hisoblanadi. Qolaversa, mamlakat va mintaqalar iqtisodiy aloqalarning asosi va harakatlantiruvchi kuchi ham aynan shaharlar xisobidan yuzaga keladi. Odatda, urbanizatsiya ko'rsatkichi bilan mamlakat va mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi, milliy xo'jalik rivojlanganlik tarkibi o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud[6]. Masalan, umumiyy urbanizatsiya ko'rsatkichi 70-75% dan yuqori bo'lgan davlatlar iqtisodiyoti yuksak darajada rivojlangan, xo'jaligida noishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalari yuqori bo'lgan postindustrial davlatlar hisoblanadi.

Agar urbanizatsiya darajasi 50-70 foiz atrofida bo'lsa, bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish surati yuqori xo'jalik tizimi industrial agrar xarakterga ega bo'ladi. Ko'rilibayotgan ko'rsatkichning miqdori 30-50 foiz atrofida bo'lsa, bunday mamlakatlar yoki boshqa hududlar xo'jaligi milliy va mintaqaviy iqtisodiyoti rivojlanayotgan tusga ega bo'lib, ularni agrar industrial davlatlarga kiritish mumkin. Ayni chog'da umumiyy urbanizatsiya ko'rsatkichi 25-30 foizdan past bo'lsa, ko'pchilik holatlarda bu hududlar qoloq mamlakatlar hisoblanadi.

Jahonning turli mamlakatlarda bunday hududiy urbanistik tizimlar intensiv ko'payib bormoqda. E'tiborli jihatni, mazkur holat ko'proq rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilib, rivojlangan mamlakatlarda esa yirik shaharlar aglomeratsiyasi, konurbanizatsiya va megapolislarning ananaviy

rivojlanishi biroz susaymoqda. Hududalarda shaharlarni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, zamonaviy shaharlashuv jarayonida muhim jihatlardan biri. Bu jarayonda bir necha asosiy omillar hisobga olinadi:


*Infratuzilma*: maxsulotlar va xizmatlarning samarali taqsimoti uchun zamonaviy transport, kommunikatsiya, energiya va suv ta'minoti tizimlari yaratish.

*Ekologik barqarorlik*: shaharlarda yashash muhitini yaxshilash uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni samarali ishlatalish.

*Ijtimoiy vaziyat*: barcha fuqarolarning asosiy xizmatlarga, ta'lim, tibbiy xizmat va ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash.

*Iqtisodiy rivojlanish*: yangi ish o'rnlari yaratish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalar jalb qilish.

### Mintaqalarda shaharlarni samarali va barqaror rivojlantirish mexanizmlari



**1-rasm. Mintaqalarda shaharlarni samarali va barqaror rivojlantirish mexanizmlari**

## GEOGRAFIYA

*Texnologik inovatsiyalar:* aqlli shahar konsepsiyalari, sifrlashtirish va yangi texnologiyalarning joriy etilishi.

Bu omillarning birgalikda amalga oshirilishi shaharlarning rivojlanishini va barqarorligini ta'minlaydi. Shaharlarni rivojlantirishdagi samarali strategiyalar, resurslarni optimallashtirish va hamkorlikni talab qiladi.

So'nggi yillarda respublikamizdagi demografik vaziyatidan kelib chiqib, hududlardagi kichik va o'rta shaharlarni ortib borishini hisobga olinsa, shahar infratuzilmasini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirishda qo'yidagilarni hisobga olish muhim hisoblanadi:

birinchidan, jahondagi kichik va o'rta shaharlarning rivojlanishiga yuqori darajada e'tibor qaratgan xorijiy davlatlar tajribasini chuqr o'rganish hamda urbanizatsiya jarayonidan rivojlanish dvigateli sifatida samarali foydalanish;

ikkinchi, kichik va o'rta shaharlarda infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish hamda ularni yanada jozibali va samarali qilish uchun jamoat joylarini modernizatsiya qilishi kerak;

uchinchidan, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini takomillashtirish va kengaytirish;

to'rtinchidan, elektr infratuzilmasi va ko'cha chiroqlarini modernizatsiya qilish, avtomobil yo'llari, piyodalar va jamoat transporti zonalarini modernizatsiya qilish;

beshinchidan, energiya tejaydigan zamonaliviy jamoat binolarini modernizatsiya qilish;

oltinchidan, jamoat joylari va bog'lar, ko'cha tarmoqlari va tegishli infratuzilmalarni rekonstruksiya qilish va madaniy meros obyektlarini qayta tiklash orqali uning jozibadorlini oshirish;

yettinchidan, kichik va o'rta shaharlarda aholi joylashuvi va o'sish imkoniyatlari hisobga olingan reja asosida amalga oshirish.

O'zbekiston sharoitida shaharlarni rivojlantirish konsepsiysi va mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Shaharlarni rivojlantirish konsepsiysi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga asoslangan bo'lib, barqaror shahar rivojlanishini ta'minlash, infrastrukturani modernizatsiya qilish va yashash sharoitlarini yaxshilashni maqsad qiladi. Mintaqlarda shaharlarni rivojlantirish mexanizmlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olishni talab etadi. Ushbu mexanizmlar shaharlarning samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Unda qo'yidagilarga e'tibor qaratish muhim deb hisoblaymiz:

Urbanizatsiyasining yuqoridagi jihatlari uning o'ziga xos tarmoqlari muhim hisoblanadi. Mazkur jarayonni geografik jihatlari esa ularning barchasiga tegishli bo'lib, eng avvalo, hududiy tafovutlarni, farqlarni nazarda tutadi. Shuning uchun ham urbanizatsiyaning turli tomonlariga hududiy nuqtayi nazarda qaralganda bevosita uning geografik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiya suratining yuqoriliqi qisman ularda shahar aholisi tabiiy harakatining yuqoriligi bilan xam tavsiflanadi. Iqtisodiy geografik omillar, ya'n miliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibi va ixtisoslashuvi, xo'jalikning hududiy tashkil etilishi va iqtisodiy rayonlar tizimi shaharlar rivojlanishi ham urbanizatsiyaning asosida yotadi. Shuningdek, ushbu jarayonning hududiy yoki geografik jihatlari joyning geoekologik holati, sotsial geografik xususiyati va geosiyosiy vaziyati ham urbanizatsiyaning hududiy farqlarini yoki geografik jihatlarini ifodalovchi omillar sifatida muhim hisoblanadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya jarayonlari oid ilmiy tadqiqotlar shaharlardan rivojlanishining muammolarini hal qilish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shaharlarni rivojlantirish mexanizmlari kompleks yondashuvni talab etadi. Rejalashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mexanizmlar hamda fuqarolarning ishtirokini rag'batlantirish shaharlarning samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Mintaqlarda urbanizatsiyaning rivojlanish muammolari ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sohalarni qamrab oladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun kompleks va samarali strategiyalar, davlat va jamoatchilik hamkorligi talab etiladi. Barqaror rivojlanish uchun resurslarni samarali foydalanish va ekologik muhofazaga e'tibor berish muhimdir. Respublika shaharlarini rivojlantirish konsepsiysi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, infratuzilmani modernizatsiya qilishda, ekologik barqarorlikni va fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu konsepsiya shaharlarning samarali va barqaror rivojlanishini ta'minlashda asos bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ата-Мирзаев О., Гентишке В., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Т. Университет, 2002. - 125 с.
2. Лаппо Г.М.География городов. – М.,1997. – 129 с.
3. Qodirov M.A. Shaharlар geografiyası. O'quv uslubiy qo'llanma. Samarcand, 2022. – 184 b.
4. Qurbonov P.R Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. №5 [141]. 2023 y. 49-50 b.
5. Қурбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жарёнлари (монография). Тошкент, 2019. – 105 б.
6. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Shaharlар geografiyası. O'quv qo'llanma. Т., 2018. – 156 б.
7. Таштаева С. Шаҳарлар географияси. Ўқув қўлланма. Т., 2014.-156 б.
8. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.) (монография). – Т.: «Fan va texnologiya», 2010. - 156 б.
9. Турсынов А.С. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида урбанизация жарёнлари (монография). Тошкент, 2021. - 112 б.
10. Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жарёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш. (монография). Т. Тафаккур нашриёти, 2020. -368 б.